

NOGIRONLIKKA YONDASHUVNING TIBBIY VA IJTIMOY MODELLARI

МЕДИЦИНСКАЯ И СОЦИАЛЬНАЯ МОДЕЛИ ПОДХОДА К ИНВАЛИДНОСТИ

MEDICAL AND SOCIAL MODELS OF APPROACH TO DISABILITY

INOGAMOVA DILFUZA RAXMATULLAYEVNA.

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Miily pedagogika universiteti "Surdopedagogika
va maxsus pedagogikaning klinik asoslari" kafedrası professori

VORISOVA ZUHRA RAUFOVNA

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Miily pedagogika universiteti "Surdopedagogika
va maxsus pedagogikaning klinik asoslari" kafedrası magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada nogironlik fenomeniga nisbatan shakllangan tibbiy va ijtimoiy yondashuvlarning nazariy-amaliy jihatlari ilmiy tahlil qilingan. Tibbiy model doirasida nogironlik individual patologik muammo sifatida qaralsa, ijtimoiy modelda e'tibor jamiyat tomonidan yaratilgan to'siqlar va infratuzilmaviy cheklovlarga qaratiladi. Maqolada ushbu ikki modelning farqlari va ularni zamonaviy biopsixosotsial yondashuv doirasida integratsiyalash zarurati asoslangan bo'lib, inklyuziv muhit hamda raqamli texnologiyalarning nogironligi bo'lgan shaxslar hayot sifatini oshirishdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: nogironlik, tibbiy model, ijtimoiy model, inklyuziya, rehabilitatsiya, ijtimoiy integratsiya.

Аннотация. В данной статье научно анализируются теоретические и практические аспекты медицинского и социального подходов к феномену инвалидности. В рамках медицинской модели инвалидность рассматривается как индивидуальная патологическая проблема, тогда как в социальной модели внимание акцентируется на барьерах и инфраструктурных ограничениях, создаваемых обществом. В статье обоснованы различия между этими двумя моделями и необходимость их интеграции в рамках современного биопсихосоциального подхода, а также освещена роль инклюзивной среды и цифровых технологий в повышении качества жизни лиц с инвалидностью.

Ключевые слова: инвалидность, медицинская модель, социальная модель, инклюзия, реабилитация, социальная интеграция.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the theoretical and practical aspects of medical and social approaches to the phenomenon of disability. Within the medical model, disability is viewed as an individual pathological problem, whereas the social model focuses on the barriers and infrastructural constraints created by society. The paper substantiates the differences between these two models and the necessity of their integration within a modern biopsychosocial approach, highlighting the role of an inclusive environment and digital technologies in improving the quality of life for persons with disabilities.

Keywords: disability, medical model, social model, inclusion, rehabilitation, social integration.

Kirish

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Inson qadri uchun" tamoyili bosh mezon qilib belgilandi. Bu tamoyilning amaliy ifodasi sifatida mamlakatda ijtimoiy himoya va ijtimoiy ish tizimi tubdan yangilandi. Ilgari ijtimoiy yordam faqat moddiy nafaqa to'lash bilan cheklangan bo'lsa, bugungi kunda ijtimoiy ish og'ir ahvolga tushgan insonni o'sha holatdan chiqarish, uning salohiyatini tiklash va jamiyatga integratsiya qilishga qaratilgan professional faoliyatga aylandi.

O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari (nogironligi bo'lgan shaxslar, yetim bolalar, yolg'iz keksalar) bilan ishlashda eskirgan usullardan voz kechib, xalqaro standartlarga (BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti) mos keluvchi tizim yaratish zaruriyati tug'ildi. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijtimoiy ish sohasi nafaqat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi, balki jamiyatning ma'naviy va insonparvarlik asosi sifatida tubdan isloh qilinmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy Davlat qurish tamoyili konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangani bu sohadagi o'zgarishlarning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Avvallari ijtimoiy himoya tushunchasi faqatgina muhtojlarga nafaqa va moddiy yordam berish bilan cheklangan bo'lsa, bugungi kunda bu tushuncha insonning qadr-qimmatini, uning jamiyatdagi faol ishtiroki va potentsialini ro'yobga chiqarishga qaratilgan keng qamrovli tizimga aylandi.

Zamonaviy jamiyatda nogironlik masalasi faqat biologik yoki tibbiy hodisa sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaralmoqda. Jamiyat taraqqiyoti darajasi unda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan belgilanadi.

An'anaviy yondashuvlarda nogironlik shaxsning sog'lig'i bilan bog'liq muammo sifatida talqin etilgan bo'lsa, hozirgi davrda bu tushuncha ijtimoiy muhit, infratuzilma va jamoatchilik ongidagi stereotiplar bilan chambarchas bog'liq holda o'rganilmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Nogironlikka yondashuvning tibbiy va ijtimoiy modellari masalasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazkur fenomenning evolyutsion rivojlanishini, uning biologik hamda ijtimoiy omillar bilan o'zaro bog'liqligini chuqur yoritib beradi. Ilmiy manbalarda nogironlik dastlab asosan individual patologik holat sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyingi bosqichlarda u ijtimoiy muhit, madaniy qarashlar va institutsional tizimlar bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida qarala boshlagan.

Dastlabki klassik yondashuvlarda nogironlik inson organizmidagi funksional buzilishlar bilan bevosita bog'lanadi. Ushbu qarashgako'ra, asosiye'tiborkasallikni aniqlash, uni davolash va shaxsni imkon qadar me'yoriy holatga qaytarishga qaratilgan. Bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda nuqsonning klinik ko'rinishlari, uning etiologiyasi hamda reabilitatsiya jarayonlarining samaradorligi asosiy o'rinni egallaydi. Bunday yondashuv nogironlikni individual muammo sifatida ko'rib, ijtimoiy muhit omillarini ikkinchi darajali deb hisoblaydi [1, 45-bet].

Keyingi bosqichda rivojlangan nazariy qarashlarda nogironlik faqat tibbiy muammo sifatida emas, balki insonning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan holat sifatida talqin etila boshlandi. Ushbu yondashuvga ko'ra, shaxsning cheklangan imkoniyatlari jamiyatdagi moslashmagan infratuzilma, stereotiplar va ijtimoiy to'siqlar bilan yanada kuchayadi. Shu bois nogironlikni faqat organizm nuqtayi nazaridan emas, balki ijtimoiy kontekstda ham tahlil qilish zaruriyati asoslanadi [2, 112-bet].

Ilmiy adabiyotlarda nogironlikni tushunishda kompensatsiya va rivojlanish tamoyillari muhim o'rin tutadi. Rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan cheklanishlar shaxsning psixologik va ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini ishga soladi. Shu asosda nogironlikni bartaraf etish emas, balki uning oqibatlarini yumshatish va shaxsning

imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan kompleks yondashuv shakllangan [3, 78-bet].

Zamonaviy ilmiy qarashlarda nogironlik ijtimoiy konstruksiya sifatida izohlanadi. Ushbu nuqtayi nazarga ko'ra, asosiy muammo shaxsning sog'lig'ida emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan to'siqlarda mujassamlanadi. Jismoniy infratuzilmaning mos emasligi, ta'lim va mehnat bozoridagi tengsizlik hamda ijtimoiy stereotiplar nogironligi bo'lgan shaxslarning to'liq ishtirokiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatiladi. Shu sababli, nogironlikni kamaytirish uchun ijtimoiy muhitni moslashtirish va teng imkoniyatlar yaratish zarur deb hisoblanadi [4, 19-bet].

Keyingi tadqiqotlarda nogironlikka huquqiy-insonparvarlik yondashuvi shakllangan bo'lib, unda shaxsning huquqlari, erkinliklari va jamiyatdagi teng ishtiroki asosiy tamoyil sifatida belgilangan. Ushbu yondashuv nogironligi bo'lgan shaxslarni himoya qilishdan ko'ra, ularning jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan siyosiy va institutsional mexanizmlarni rivojlantirishni nazarda tutadi [5, 12-bet].

O'zbekistonda olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar nogironlikka yondashuvning modernizatsiya qilinayotganini ko'rsatadi. Xususan, ijtimoiy xizmatlar tizimining yangilanishi, inklyuziv ta'limning keng joriy etilishi hamda reabilitatsiya xizmatlarining takomillashtirilishi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonlarda davlat siyosati va ilmiy yondashuvlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi [6, 3-bet].

Shuningdek, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limidagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Masofaviy ta'lim platformalari, assistiv texnologiyalar va raqamli resurslar ularning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ijtimoiy integratsiya jarayonini tezlashtiradi [7, 54-bet].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili nogironlikni tushunishda tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o'tish jarayoni izchil ravishda rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Zamonaviy yondashuvlarda esa ushbu ikki modelning uyg'unlashuvi asosida biopsixosotsial konsepsiya shakllanib, nogironlikni kompleks ijtimoiy-biologik hodisa sifatida talqin etish ustuvor yo'nalishga aylanmoqda.

Metodologiya (qisqacha)

Mazkur tadqiqotda nogironlikka yondashuvning tibbiy va ijtimoiy modellari ilmiy-pedagogik va nazariy-metodik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va kontent tahlili metodlaridan foydalanildi. Tizimli tahlil orqali nogironlik fenomeni yaxlit ijtimoiy-biologik tizim sifatida ko'rib chiqildi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida tibbiy va ijtimoiy modellarning asosiy farqlari, o'xshash jihatlari hamda ularning amaliy qo'llanish doiralari solishtirildi. Umumlashtirish metodi asosida mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirilib, yagona nazariy xulosa shakllantirildi. Kontent tahlili esa normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va pedagogik manbalarni o'rganish orqali amalga oshirildi. Shuningdek, tadqiqotda inklyuziv ta'lim, reabilitatsiya jarayonlari va ijtimoiy integratsiya bilan bog'liq zamonaviy ilmiy konsepsiyalar metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2021-yil 3-fevraldagi

PF-6155-son Farmoniga muvofiq nogironlik belgilari aniq ko'rinib turgan, anatomik nuqsonlari bo'lgan shaxslarni klinik-funksional ma'lumotlarni olishga doir qo'shimcha tekshiruvdan o'tkazmasdan

turib, ular nogironligi bo'lgan shaxs deb topilganda nogironlikni muddatsiz davrga belgilash amaliyotini joriy etish hamda tibbiy-ijtimoiy xizmatning mutlaqo yangi modelini shakllantirish vazifasi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin. Bu farmon va qarorlar jamiyatimizda bugungi kunda o'z aksini topdi. Nogironlik tushunchasi zamonaviy

ilmiy adabiyotlarda kompleks va ko'p qirrali hodisa sifatida talqin qilinadi. U nafaqat inson organizmidagi funksional cheklanishlarni, balki tashqi muhitning moslashmaganligi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy to'siqlarni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, nogironlik shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir mahsuli sifatida qaraladi.

Nogironlikka yondashuvning tibbiy va ijtimoiy modellari hamda amaliy yo'nalishlari

Yo'nalishlar	Asosiy mazmuni	Yondashuv mohiyati	Amaliy ahamiyati
Tibbiy model	Nogironlikni organizmdagi kasallik, nuqson yoki funksional buzilish sifatida izohlaydi	Individual muammo; asosiy e'tibor davolash va reabilitatsiyaga qaratiladi	Diagnostika, davolash, tibbiy reabilitatsiya orqali shaxsni normativ holatga yaqinlashtirish
Ijtimoiy model	Nogironlikni jamiyatdagi to'siqlar va moslashmagan muhit natijasi sifatida qaraydi	Muammo shaxsda emas, balki jamiyatda; teng imkoniyatlar yaratish asosiy tamoyil	Inklyuziv ta'lim, ijtimoiy integratsiya, diskriminatsiyani kamaytirish
Modellar o'rtasidagi farqlar	Tibbiy model biologik omillarga, ijtimoiy model esa muhit va jamiyatga asoslanadi	Individual yondashuv vs ijtimoiy yondashuv	Biopsixosotsial model shakllanishiga asos bo'ladi
Amaliy yondashuvlar	Inklyuziv ta'lim, reabilitatsiya, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy integratsiya	Kompleks va integrativ yondashuv	Ta'lim va mehnat imkoniyatlarini kengaytirish, hayot sifatini oshirish
Rivojlanish istiqbollari	Inklyuziv jamiyat, universal dizayn, raqamli	Barqaror ijtimoiy moslashuv va teng imkoniyatlar	To'siqsiz muhit yaratish va ijtimoiy

Tibbiy model nogironlikni inson organizmida yuzaga keladigan kasalliklar, anatomik nuqsonlar yoki funksional buzilishlar natijasi sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuvda nogironlik, avvalo, individual darajadagi muammo sifatida qaraladi va uning kelib chiqish sabablari biologik hamda klinik omillar bilan bog'lanadi. Shuning uchun ham tibbiy model doirasida asosiy e'tibor diagnostika jarayoniga, kasallikni aniqlashga, davolash usullarini ishlab chiqishga hamda reabilitatsiya tadbirlarini amalga oshirishga qaratiladi.

Mazkur modelga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxsning asosiy maqsadi imkon qadar sog'lom holatga yoki "normativ" deb hisoblangan funksional darajaga qaytarish hisoblanadi. Bunda tibbiyot muassasalari yetakchi rol o'ynaydi, shifokorlar esa asosiy qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan tibbiy modelda nogironlik ko'proq "davolanishi kerak bo'lgan holat" sifatida talqin etiladi.

Biroq ushbu yondashuv zamonaviy ilmiy adabiyotlarda tanqidga ham uchraydi. Chunki u nogironlikning ijtimoiy, psixologik va madaniy jihatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Tibbiy model doirasida insonning jamiyatdagi ishtirokini cheklovchi asosiy omil uning sog'lig'i deb qaraladi, holbuki amaliyotda ko'plab cheklovlar ijtimoiy muhit, infratuzilma va stereotiplar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu sababli, tibbiy model nogironlikni faqat individual patologiya sifatida ko'rib, shaxsni yordamga muhtoj va ko'pincha passiv subyekt sifatida tasvirlaydi. Bunday yondashuvda nogironligi bo'lgan shaxs "bemor" sifatida baholanib, uning asosiy muammosi kasallik yoki nuqson deb hisoblanadi. Natijada, asosiy yechim sifatida tibbiy aralashuvlar, dorivor davolash va reabilitatsiya jarayonlari ustuvor o'rin egallaydi.

Shu bilan birga, bugungi kunda bu sohaga davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan yanada kengroq yondashuv zarurligi ta'kidlanadi. Chunki faqat tibbiy yordam

bilan cheklanib qolish nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga to'liq integratsiyasini ta'minlash uchun yetarli emas.

Ijtimoiy model nogironlikka bo'lgan zamonaviy yondashuv sifatida shakllanib, u insonning sog'lig'idagi cheklanishlardan ko'ra, jamiyatdagi mavjud to'siqlar va moslashmagan muhitga ko'proq e'tibor qaratadi. Ushbu modelga ko'ra, nogironlik shaxsning ichki muammosi emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan tashqi cheklovlar natijasidir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ijtimoiy ish tizimining rivojlanishi bilan birga nogironligi bo'lgan shaxslarga bo'lgan munosabat ham tubdan o'zgarib bormoqda. Tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o'tish jarayonida asosiy urg'u insonning "kasalligi"ga emas, balki uning jamiyatda erkin harakatlanishi, ta'lim olishi va mehnat faoliyatida ishtirok etishiga to'sqinlik qilayotgan omillarga qaratilmoqda.

Mazkur yondashuv doirasida inklyuziv jamiyatni shakllantirish asosiy strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash, ularning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida teng ishtirokini ta'minlash bugungi ijtimoiy siyosatning muhim qismiga aylangan.

Ijtimoiy modelning asosiy g'oyasi shundan iboratki, nogironlik shaxsda emas, balki muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar bilan belgilanadi. Bu to'siqlar jismoniy (infratuzilma mos emasligi), kommunikativ (axborotdan foydalanish cheklanganligi) va ijtimoiy-psixologik (stereotiplar va kamsitishlar) ko'rinishida bo'lishi mumkin. Shu sababli asosiy e'tibor ushbu to'siqlarni bartaraf etishga qaratiladi.

Ijtimoiy model nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida ko'radi va ularning faol ishtirokini ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Bu yondashuv inklyuziv ta'lim, teng imkoniyatlar siyosati va ijtimoiy integratsiya jarayonlarining nazariy asosini tashkil etadi.

Tibbiy va ijtimoiy modellarning o'zaro

farqlarini nogironlik fenomenini tushunish va unga amaliy yondashuvni belgilashda fundamental ahamiyatga ega. Tibbiy modelning asosiy yo'nalishi shaxsning sog'lig'i va organizm funksiyalarini tiklashga qaratilgan bo'lib, unda nogironlik individual patologiya sifatida talqin etiladi. Bu yondashuvda muammoning markazida inson organizmidagi buzilishlar turadi va yechim sifatida davolash hamda reabilitatsiya jarayonlari ustuvor hisoblanadi.

Ijtimoiy model esa mutlaqo boshqacha metodologik pozitsiyaga asoslanadi. Unga ko'ra, nogironlikning asosiy sababi shaxsdagi biologik cheklanish emas, balki jamiyatda mavjud bo'lgan moslashmagan muhit, infratuzilma to'siqlari va ijtimoiy stereotiplardir. Demak, bu modelda muammo shaxsda emas, balki jamiyat tizimida deb qaraladi. Shu sababli yechim ham shaxsni "o'zgartirish" emas, balki jamiyatni moslashtirish va teng imkoniyatlar yaratish orqali amalga oshiriladi.

Ilmiy adabiyotlarda ushbu ikki modelning qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi jihatlari ham mavjudligi ta'kidlanadi. Zamonaviy yondashuv sifatida biopsixosotsial model ilgari surilib, unda nogironlik biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasi sifatida talqin qilinadi. Bu esa nogironlikka kompleks yondashuv zarurligini asoslaydi.

Hozirgi davrda nogironlikka yondashuv amaliyotida bir qator muhim yo'nalishlar shakllangan bo'lib, ular ijtimoiy integratsiya va inklyuziv jamiyat qurish jarayonining asosini tashkil etadi. Ushbu yo'nalishlar orasida inklyuziv ta'lim alohida ahamiyatga ega bo'lib, u barcha bolalarning, jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning ham teng sharoitda ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan.

Inklyuziv ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy moslashuv, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va shaxsning jamiyatga integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, reabilitatsiya jarayonlari ham kompleks yondashuv asosida rivojlanib, u shaxsning jismoniy, psixologik

va ijtimoiy holatini tiklashga yo'naltiriladi. Bu jarayonda tibbiy, pedagogik va psixologik xizmatlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Masofaviy ta'lim platformalari, assistiv texnologiyalar, ovozli va moslashtirilgan dasturiy vositalar ularning ta'lim va mehnat jarayonlarida faol ishtirokini yengillashtirmoqda. Bu esa raqamli inklyuziyaning shakllanishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy integratsiya jarayoni ham muhim amaliy yo'nalish sifatida qaraladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotining barcha sohalarida teng ishtirok etishi ularning hayot sifatini oshirish bilan birga, ijtimoiy adolat tamoyillarining amalga oshishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligi muhim strategik ahamiyatga ega.

Kelgusida nogironlikka yondashuvning rivojlanishi bir necha strategik yo'nalishlar asosida amalga oshishi kutiladi. Birinchi navbatda, inklyuziv jamiyat modelining yanada kengayishi va mustahkamlanishi asosiy tendensiya sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda har bir shaxs uchun teng imkoniyatlar yaratish ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylanadi.


Ikkinchi muhim yo'nalish universal dizayn tamoyillarining keng joriy etilishidir. Bu tamoyilga ko'ra, infratuzilmalar, ta'lim muassasalari, transport tizimi va raqamli platformalar barcha insonlar, jumladan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ham qulay va to'siqlarsiz bo'lishi lozim. Bu esa jamiyatning umumiy moslashuv darajasini oshiradi.

Uchinchi yo'nalish raqamli texnologiyalar asosida yangi imkoniyatlarning yaratilishi bilan bog'liq. Sun'iy intellekt, assistiv qurilmalar va raqamli platformalar nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim, mehnat va ijtimoiy hayotda faol ishtirokini yanada kengaytiradi. Bu esa ularning mustaqilligini oshirishga xizmat

qiladi.

Shuningdek, ijtimoiy ong darajasining oshishi ham muhim istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Jamiyatda nogironlikka nisbatan stereotip va kamsituvchi qarashlarning kamayishi, inson huquqlariga asoslangan madaniyatning shakllanishi inklyuziv jamiyat barqarorligini ta‘minlaydi. Natijada nogironlikka yondashuv tibbiy modeldan to‘liq ijtimoiy va biopsixosotsial yondashuvga o‘tish jarayonini mustahkamlaydi.

Quyidagi diagramma nogironlikka yondashuvning asosiy ikki modeli — tibbiy va ijtimoiy model hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini soddalashtirilgan ko‘rinishda ifodalaydi. Diagrammada ushbu ikki yondashuvning mustaqil rivojlanishi va ular asosida shakllanadigan integrativ (biopsixosotsial) qarashlar tizimi aks ettirilgan. Bu yondashuv nogironlikni faqat bir tomonlama emas, balki kompleks ijtimoiy-biologik hodisa sifatida tushunish imkonini beradi.



Diagrammada uchta asosiy yondashuv aniq strukturada berilgan. Yuqori chap qismdagi “Tibbiy model” nogironlikni individual biologik va funksional buzilishlar bilan izohlovchi yondashuvni ifodalaydi. Yuqori o‘ng qismdagi “Ijtimoiy model” esa nogironlikni jamiyatdagi to‘siqlar, moslashmagan muhit va tengsizliklar bilan bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi.

Pastki qismda joylashgan “Biopsixosotsial yondashuv” esa ushbu ikki modelning integratsiyasi natijasida shakllangan zamonaviy ilmiy konsepsiyani anglatadi. U nogironlikni biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta‘siri sifatida kompleks yondashuvda tushuntiradi.

Diagramma shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ilmiy qarashlarda nogironlikni bir tomonlama emas, balki ko‘p omilli tizim sifatida tahlil qilish

muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu inklyuziv ta‘lim va ijtimoiy integratsiya jarayonlarining samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Nogironlikka yondashuvning tibbiy va ijtimoiy modellari zamonaviy ilmiy qarashlarda bir-birini to‘ldiruvchi muhim konseptual yo‘nalishlar sifatida qaraladi. Tibbiy model nogironlikni shaxs organizmidagi funksional buzilishlar va patologik holatlar bilan izohlab, asosiy e‘tiborni diagnostika, davolash va reabilitatsiya jarayonlariga qaratadi. Bu yondashuv individual sog‘liqni tiklash va imkon qadar normativ funksional holatga qaytarishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy model esa nogironlikni jamiyatdagi to‘siqlar, moslashmagan infratuzilma hamda ijtimoiy stereotiplar natijasi sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuvda asosiy

urg'u shaxsni "o'zgartirish"ga emas, balki jamiyatni moslashtirish, teng imkoniyatlar yaratish va inklyuziv muhitni shakllantirishga qaratiladi. Zamonaviy ilmiy qarashlarda ushbu ikki modelning integratsiyasi natijasida biopsixosotsial yondashuv shakllangan bo'lib, u nogironlikni biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri sifatida kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa

nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi ishtirokini kengaytirish, ularning huquq va imkoniyatlarini ta'minlash hamda hayot sifatini oshirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Nogironlikka zamonaviy yondashuvlar inson qadrini yuksaltirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va inklyuziv jamiyat qurish g'oyalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020. – 12 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6155-son Farmoni. "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2021. – 3 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4860-son Qarori. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari. – Toshkent, 2020. – 5 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5130-son Qarori. Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2021. – 4 b.
5. Yusupov I. Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 54 b.
6. Seliverstov V. I. Zaikanie u detey. – Moskva: Vados, 1997. – 45 s.
7. Vygotzky L. S. Myshlenie i rech. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 112 s.
8. Vlasova N. A., Rau E. F. Metodika logopedicheskoy raboty pri zaikanii u detey. – Moskva: Prosveshchenie, 1983. – 78 s.
9. Hunt P. A Critical Condition // Disability Studies Archive. – London: Geoffrey Chapman, 1966. – 19 p.
10. Aziza Sodiqova, Komilov F. Nogironlik tushunchasini o'rganishda tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o'tish xususiyatlari. – Ilmiy maqola, 2024. – 651-son.
11. "Yurt faxri" elektron manbasi: Nogironlik va inklyuziv yondashuv masalalari. – URL: <https://share.google/hXDk9tl353bERK7EM>
12. Centr Truda. Persons with disabilities materials. – URL: <https://centrtruda.com/2020/12/21/>